

## V.V.BARTOLDNING TURKISTON O'LKASI TARIXINI O'RGANISHDAGI O'RNI

*1-bosqich magistranti: Rahmatullayev Ahadulla.*

*Ilmiy rahbar: dots. M.M.Hoshimova.*

XIX asrning birinchi yarmida G'arbiy Yevropa mamlakatlarining ijtimoiy-gumanitar fan vakillari Osiyo mamlakatlari, jumladan, musulmon dunyosi davlatlarining qadim tarixi, tilshunosligi, arxeologiyasi bilan jiddiy shug'ullana boshladilar. Bu holat Fransiya imperatori Napoleon Bonapartning Misrga yurishlaridan keyin an'anaviy tus olgan.

XIX asrning II yarmida ayniqsa, Turkiston o'lkasi podsho Rossiya tomonidan bosib olinib, bu yerdagi mavjud 3 ta xonlik vassal davlatlarga aylantirilgandan keyin O'rta Osiyo xalqlarining tarixiga rus tarixshunoslarining qiziqishi kuchaygan. Bu davrda V.V.Grigoryev, D.A.Xvolson, P.I.Lerx, N.I.Berezin, V.G.Tizengauzen, N.I.Veselovskiy, V.V.Radlov, V.R.Rozen kabi sharqshunos, etnograf mutaxassislar Turkiston o'lkasining qadimiyati, moddiy va ma'naviy madaniyati tarixi, etnografiyasi bilan shug'ullanishni boshlagan.

Turkiston xalqlarning qadimiy o'tmishi, boy moddiy va ma'naviy hayotidan hikoya qiluvchi arabiy, forsiy, turkiy yozma manbalarning ko'plab saqlanib qolgan asl nusxalari, numizmatika, etnografiya namunalari rossiyalik mutaxassislar uchun nihoyatda qimmatli manba bo'lib xizmat qildi. Natijada, ijtimoiy-gumanitar fanlarning turli yo'nalishi va sohalarida (sharqshunoslik, tarix, arxeologiya, etnografiya, numizmatika...) tadqiqotlar o'tkazgan ilm-fan vakillarining ilmiy ishlari ularga katta muvaffaqiyat olib kela boshladi. Bu ishlar o'z navbatida endigina o'z shakllanishini boshlagan, keyinchalik o'z an'alariga ega bo'lgan mustaqil rus tarixiy sharqshunoslik maktabi uchun katta tajribani o'tadi.

Shunga qaramasdan, O'rta Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan keyingi o'tgan 15-20 yillik davrda o'lka tarixshunosligini o'rganish holati hanuz o'zining boshlanish pallasida bo'ldi. 1890-yillarning boshlaridan Rossiya sharqshunoslik maktabining o'sha paytdagi iste'dodli yoshlaridan hisoblangan V.V.Bartold Turkiston tarixshunosligi bilan jiddiy shug'ullanuvchi, idrokli "oriyentalist" sifatida ajralib turardi. Uning ilmiy faoliyati bevosita O'rta Osiyoning o'rta asrlar tarixi, arxeologiyasi bilan bog'lanib ketdi.

Vasiliy Vladimirovich Bartold 1869-yil 15-noyabrda Sankt-Pererburg shahrida ruslashib ketgan nemis oilasida tug'ilgan. Otasining ajdodlari Boltiqbo'yi o'lkasidan, ona tomondan ajdodlari Rossiyaga Germaniyaning Gamburg shahridan ko'chib kelgan. Otasi Vladimir Bartold birja makleri bo'lib faoliyat yuritgan. V.V.Bartoldning bolalik va o'smirlik yillari oiladagi moddiy ta'minotning yaxshiligi tufayli gumanitar fanlarning turli yo'nalishlari bo'yicha malakali bilim olish bilan o'tgan. Dastlab u G'arbiy Yevropa xalqlarining qadimgi mumtoz tillarini o'rgangan va maktab davridayoq, kelgusida tarixchi mutaxassis bo'lishga ahd qilgan [1].

1987-yilda V.V.Bartold Sankt-Pererburg shahridagi 8-sonli gimnaziyani oltin medal bilan bitiradi. Bu paytda uning oldida mutaxassislik yo'nalishini belgilovchi ikkita yo'l bor edi. Birinchisi antik davr tarixi bo'yicha tahsil olish, ikkinchisi, Yaqin

Sharq va O'rta Sharq mamlakatlarining tarixi bo'yicha shug'ullanish. Muayyan ikkilanishlardan so'ng Bartold 1987-yil Sankt-Peterburg universitetining sharq tillari fakultetiga o'qishga kiradi.

V.V.Bartold talabalik yillarida arab, fors, turk tillarini chuqur o'rganishga kirishadi. Uni Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining o'rta asrlar davri tarixi nihoyatda qiziqtirib qoladi. Keyinchalik, V.V Bartold o'z avtobiografiyasida quyidagicha yozadi: - "Sharq mamlakatlari tarixi bo'yicha fakultetda faqat yagona mutaxassis, prof. Veselovskiy umumiy kursdan ma'ruzalar o'qidi, yevropalik sayyohlarning sayohatnomalari bo'yicha qiziqarli ma'lumotlar berdi. Uning O'rta Osiyo tarixi bo'yicha o'qigan bir nechta ma'ruzasi menda katta taassurot qoldirdi. Ushbu ma'ruzaga qiziqishim juda ortdi". O'sha paytda "Sharq tarixi" kafedrasida professori N.I. Veselovskiy (1848-1918) V.V Bartoldga o'z bilim darajasini oshirish uchun katta yordam va ayniqsa, mustaqil tayyorlanishi uchun sharoit yaratib beradi. Uning xaqiqiy ilmiy rahbari, baron V.R. Rozen o'z davrining haqiqiy pedagogi, murabbiyi va taniqli olimi sifatida V.V Bartold va boshqa yosh, iqtidorli talabalarga tom ma'noda ustozlik qilgan. Professor, arabshunos V.R. Rozen rus sharqshunoslik maktabining asoschilaridan biri bo'lib, Bartoldga o'xshagan iste'dodli yoshlarni o'z qaramog'iga, shaxsiy nazoratiga olgan edi. Shuningdek, talabalik davrida V.V Bartold turkshunoslar akademik V.V. Radlov, professor P.M. Melioranskiy bilan yaqindan tanishadi, ulardan turk tili, turkiy xalqlar tarixi bo'yicha saboq oladi.

Universitetda o'qib yurgan davridayoq V.V Bartold ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullana boshlagan. Uning o'sha paytda yozgan "O'rta Osiyodagi xristianlik to'g'risida" ("O xristianstve v Sredney Azii") nomli risolasi Sankt-Peterburg universiteti sharqshunoslik fakul'tetining kumush medali bilan taqdirlanadi.

1891-yilda universitet tahsilini tugatgan V.V Bartold ustozi V.R. Rozenning maslahati bilan 1891-1892-yillarda malakasini oshirish uchun, o'z hisobidan Finlyandiya, Germaniya, Shveysariya, Italiya, Avstriya, Vengriya va Krakovga sayohatga chiqadi. Sayohat davrida u Gall universitetida taniqli islomshunos, professor Avgust Myuller (1848-1892), Strasburg universitetida taniqli arabshunos, akademik Teodor Nyoldeke (1836-1930) ma'ruzalarini eshitdi. Rossiyaga qaytgan V.V Bartold 1892-yil Sankt-Peterburg universiteti sharqshunoslik fakultetining "Sharq tarixi" kafedrasiga ishga tayinlandi.

XIX asrning 90-yillari V.V.Bartold uchun nihoyatda sarmahsul, ilmiy ijod bilan shug'ullangan yillar sifatida o'rin olgan. Bu davrda u o'zining fundamental ilmiy ishi "Turkiston mo'g'ullar istilosi davrida" ("Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya") nomli asarini yaratadi. 1900-yil u ushbu ishni fakul'tetning ilmiy kengashiga magistr ilmiy darajasini olish uchun taqdim etadi. Biroq, himoyadan so'ng, unga Sharq tarixi bo'yicha fan doktori degan oliy ilmiy daraja beriladi. Mazkur asarni yaratish, qo'lyozmalar bilan tanishish va joylarda arxeologik qazishma ishlarini o'tkazish uchun V.V. Bartold O'rta Osiyoga ekspeditsiyalar uyushtiradi. Xususan, uning rahbarligida 1893-1894-yillarda Rossiya Fanlar Akademiyasi va Sankt-Peterburg universiteti tomonidan, 1902-yilda Sankt-Peterburg universiteti tomonidan 1904, 1916-yillarda O'rta va Sharqiy Osiyoni o'rganish qo'mitasi tomonidan (Samarqandda arxeologik qazishmalar o'tkazish uchun) maxsus ekspeditsiyalar tuzilib Turkiston o'lkasiga yuborilgan, ekspeditsiya vaqtida Toshkent,

Samarqand , Yassi shaharlari va ularning atroflarida arxeologik qazuv tadqiqotlari o'tkazilgan. Natijada, V.V. Bartold o'lkani tarixi u o'ylagandan ham qadimgi va qiziqarli ekanligiga amin bo'ladi.

Ushbu ilmiy safarlar chog'ida V.V. Bartoldda Turkistonda arxeologiya izlanishlari bilan muntazam shug'ullanuvchi bir ilmiy muassasa tuzish g'oyasi tug'iladi. Uning tashabbusi bilan 1895-yilda Turkiston o'lkashunoslari tomonidan Toshkent shahrida Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi tuziladi. Samarqanddagi Afrosiyob, Buxorodagi Poykent, Xo'janddagi Xo'jabaqirgansoy havzasi yodgorliklarida, O'ratepa yaqinidagi makonlarda, Toshkent atrofidagi qadimiy inshootlarda arxeologik qazuv tadqiqotlari o'tkazganlar. Bundan tashqari to'garak a'zolari qadimiy osori-atiqalar, sharq qo'lyozmalari, numizmatika va etnografiyaga oid materiallarni qayd qilish, hisobga olish bilan ham shug'ullanishgan. V.V. Bartolddan tashqari bu ishlarda M.S. Andreyev, A.A. Divayev, N.S. Likoshin, N.G. Malliskiy, N.P. Ostroumov, A.A. Semyonov va boshqalar qatnashganlar To'garak 1917-yil davlat to'ntarishidan so'ng tarqalib ketgan [2].

Taniqli sharqshunos, arxeolog, akademik V.V. Bartold (1869-1930) o'zining butun ijodiy faoliyatini Turkiston o'lkasi xalqlarining o'rta asrlar davri tarixini o'rganishga bag'ishlagan V.V. Bartold yuqorida qayd etilgan fundamental ilmiy asaridan tashqari, o'lka xalqlarining sug'orma dehqonchiligi, irrigasiyasi tarixiga, Ulug'bek davri siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotiga, qoraxoniylar davlati tarixiga oid qator, ilmiy asarlar yaratdi. Uning ilmiy ishlari 9 tom dan iborat kitoblar sahifasidan o'rin olgan. Shu sababli O'rta Osiyo (Movarounnahr, Turkiston) xalqlarining o'rta asrlar tarixshunosligini yaratishda V.V. Bartoldning xizmatlari alohida e'tirofga sazovordir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. В.В. Бартольд. Автобиография// Журнал "Огонёк". Москва, 1927, №40 с. 20-27.
2. Туркистон Археология Ҳаваскорлари тўғараги, Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 8-том Тошкент, 2004- йил, 649 с.

**SamDU tarix fakulteti "Umumiy tarix" kafedrası professor-o'qituvchilari, magistrant va iqtidorli talabalarning 2013-yildagi ilmiy tadqiqot ishlari yakunlariga bag'ishlangan ilmiy maqolalar to'plami. Samarqand 2014. 82-85.**